| | |
|---|---|
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>Ermamatov Sh.J. - TDSHU "Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Sodiqov Z.R. – O'zXIA "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).<br>Xabibullaev I. – TMI, "Statistika" kafedrasi professori, texnika fanlari doktori (turdosh OTM). |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
G.Sh. Rixsiyeva
2020 yil"28" 08

**"KELISHILDI"**
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
2020 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: №MD-5A231001
2020 yil "29" 08

# ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| | 600000 – Xizmatlar sohasi |
| **Ta'lim sohasi:** | 230000 – Iqtisod |
| | 610000 – Xizmatlar ko'rsatish sohasi |
| **Mutaxassisliklar:** | 5A231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)<br>5A610301 - Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)<br>5A231102 - Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati) |

**Toshkent – 2020**

| | |
|---|---|
| | mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ходиев Б.Ю., Бекмуродов А.Ш., Болтабаев М.Р., Голиш Л.В., Гимранова О.Б. Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари: Ўқув-услубий қўлланма - Тошкент: Экономика, 2010. – 138 б.<br>2. Бурда А. Г. Основы научно-исследовательской деятельности: учеб. пособие (курс лекций) / А. Г. Бурда; Кубан. гос. аграр. ун-т. – Краснодар, 2015. – 145 с.<br>3. Бахтина И.Л., Лобут А.А., Мартюшов Л.Н. Методология и методы научного познания [Текст]: учебное пособие / И.Л. Бахтина, А.А.Лобут, Л.Н. Мартюшов,; Урал. гос. пед. ун – т. – Екатеринбург, 2016. – 119 с.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.<br>5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Узбекистон, 2017. – 592 б.<br>6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Узбекистон, 2018. – 512 б.<br>7. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Узбекистон, 2019. – 400 б.<br>8. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. – М.: Либроком. – 280 с.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali<br>2. www.vak.uz - O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining rasmiy veb sayti<br>3. www.uza.uz - O'zbekiston Axborot agentligi veb sayti<br>4. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti |
| **7.** | Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202_0_ yil "_29_" _08_ dagi _4_ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202_0_ yil "_29_" _08_ dagi _452_ - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. |

17. Ijtimoiy hodisalarni prognoz qilish shakllarini taqqoslash
18. Iqtisodiy bashoratlash usullari
19. Ilmiy jamoani boshqarishning asosiy tamoyillari
20. Ilmiy seminarlarni tashkil etish
21. Ilmiy jamoani shakllantirish usullari
22. Rahbar va xodimning o'zaro munosabatlarining psixologik jihatlari
23. Ilmiy jamoada nizolarni hal etish
24. Ilmiy jamoada olingan ilmiy natijalar samaradorligini baholash
25. Ilmiy jamoaning ishini attestatsiyadan o'tkazish
26. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullari
27. Iqtisodiy matematik modellarni tanlash usullari
28. Korrelyasion va regression tahlil
29. Olingan nazariy natijalarni baholash
30. Tadqiqotni rejalashtirish nazariyasi elamentlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot, ilmiy ish tushunchalari, ilmiy maktablar va ularning faoliyati, oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim tizimi, ta'lim tizimi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, ilmiy tezis, ilmiy maqola, monografiya ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

- magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlash, magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi asoslash, yangiligi va amaliy axamiyatini belgilash, magistrlik dissertatsiyasining maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmetini asoslash, magistrlik dissertatsiyasi natijalarining amaliy ahamitini ochib bera olish, dissertatsiyani rasmiylashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

- ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish, ilmiy tezis, maqola, dissertatsiya yozish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, ilmiy manbalarni tahlil eta olish va ular bo'yicha o'z xulosalarini bayon etish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

**4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil



| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5AITM114 | | 2020-2021 | 1 | 4 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | | O'zbek/rus | | 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | 60 | | 60 | 120 |

**2. I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrlarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti sohasida ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish qobiliyatini shakllantirish, ilmiy faoliyat usullari va metodlarini o'rgatish, ilmiy tadqiqot va pedogogik faoliyatlarni me'yoriy-huquqiy hujjatlari va ularni tashkil etish jarayonlari, ilmiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish, ilmiy faoliyat natijalarini samaradorligini oshirish, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni O'zbekistonda fan va ta'lim rivojlanishi va uning taraqqiyot bosqichlari bilan tanishtirish, ularga ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tanlash, ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash va ulardan ilmiy ishlarda foydalanish yo'nalishlarini, eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqot natijalarini qayta ishlash yo'llarini o'rgatish, ilmiy jamoani tashkil etish va ular bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, xorijiy sharq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari va yo'nalishlarini tahlil qilish va xulosalar tayyorlash malakasini rivojlantirishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-modul. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy-uslubiy asoslari**

**1-mavzu. Fanga kirish**

"Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi" fanining predmeti, metodi va vazifalari. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. Fanni o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish.

**2-mavzu. Ilm-fan, ilmiy tadqiqot tushunchalari va maqsadlari**

O'zbekistonda fanning tashkiliy tuzilishi. Ilm-fan haqida tushuncha, ilmiy faoliyat. Fanning asosiy xususiyatlari. Ilmiy tadqiqot va uning maqsadi. Metod va metodologiya. Ilmiy pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash. Ilmiy jamoaviy tashkilotlar. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va uning tashkiliy tuzilishi, Ilmiy tekshirish institutining vazifalari. Institutlarda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish. Fanlar akademiyasi, akademiklarining huquq va majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Maxkamasining Fan va texnologiyalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ilm-fanni rivojlantirish va uni boshqarishdagi ahamiyati.

### 3-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlari

Ilmiy tadqiqot metodlari. Empirik tadqiqot usullari. Metodikani ilmiy jihatdan asoslash. Reja-dasturni tuzishdan oldin vazifalarni echish metodlari. Ilmiy kuzatish komponentlari. Ilmiy kuzatish metodi. Qiyoslash usuli. Hisoblash bilan o'lchash miqdoriy ma'lumot olishning asosiy metodlari. Korrelyasiya va regressiya. Modellashtirish usulida tadqiqot ob'ektining asosiy xossalari.

### 4-mavzu. Ilmiy bilishning metodologik asoslari

Axborot, bilim, ilm tushunchalari. Ilmiy daraja va unvonlar tavsifi. Ilmiy bilish tushunchasi. Ilmiy ijodkorlik metodologiyasining nazariy asoslari. Muammo, gipoteza, nazariya, g'oyalar, tamoyillar, kategoriya hamda qonuniyatlar. Ilmiy tadqiqotning asosiy metodlari: tajriba, sinov, kuzatish, induksiya, deduksiya, intuitsiya. Faraz. Dalil.

### 5-mavzu. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari

"Ilmiy-tadqiqot" tushunchasi. Ilmiy yo'nalish. Ilmiy muammo, ilmiy mavzu. Ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tanlash. Mavzuning samaradorligini baholash. Ilmiy-tadqiqot ishlarining bosqichlari. Muammmoning dolzarbligi, uning fan va texnikani rivojlantirishdagi ahamiyati. Muammoning strukturasi. Ilmiy mavzuga quyiladigan talablar. Ilmiy tadqiqotning iqtisodiy samaradorlilik va ahamiyatlilik darajasi. Mavzu dolzarbligini asoslashda ikkilamchi va birlamchi axborot manbalaridan foydalanish.

### 6-mavzu. Ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash va qayta ishlashyozish qoidalari

Axborot fan sifatida. Ilmiy hujjatlar va nashrlar. Ilmiy axborotlar tizimi. Davlatning patent axborot tizimi. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni tashkil etish. Adabiyotni to'plash va tahlil etish. Kitoblar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, broshyuralar). Davriy matbuot (jurnallar, byulletenlar, institutlarning ilmiy ishlari, ilmiy to'plamlar). Me'yoriy hujjatlar (standartlar, andozalar, texnikaviy shartlar, yo'riqnomalar, me'yoriy jadvallar, muvaqqat ko'rsatmalar va b.). Katalog va preyskurantlar. Patent hujjatlari. Ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlari haqidagi hisobotlar. Axborot nashrlari (ITI to'plamlari, analitik sharhlar, axborotli varaqalar, ekspress axborotlar, ko'rgazmalarning prospektlari va b.). Xorijiy ilmiy-texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi va asl nusxalari. Dissertatsiyalar, avtoreferatlar. Ilmiy-texnikaviy anjumanlar va ishlab chiqarish yig'ilishlarining ilmiy-texnikaviy materiallari. Ikkilamchi hujjatlar (referativ sharhlar, bibliografik kataloglar, referativ jurnallar va b.).



### 7-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

Magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha umumiy tushuncha. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining tanlanishi va ifodalanishi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilash. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmetini asoslash. Magistrlik dissertatsiyasi natijalarining amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning tuzilishi va asosiy bo'limlari mazmuni. Dissertatsiyani rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Dissertatsiya himoyasi va uni tashkil etish.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanga kirish
2. Ilm-fan, ilmiy tadqiqot tushunchalari va maqsadlari
3. Ilmiy tadqiqot metodlari
4. Ilmiy bilishning metodologik asoslari
5. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari
6. Ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash va qayta ishlashyozish qoidalari
7. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti
2. O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarining tashkil etilishi
3. Ilmiy bilishning metodologik asoslari
4. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari
5. Ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash va qayta ishlash
6. Nazariy tadqiqotlar
7. Eksperimental tadqiqotlar
8. Eksperimental tadqiqot natijalarini qayta ishlash
9. Ilmiy ish natijalarini rasmiylashtirish va axborotlarni uzatish
9. Ilmiy-tadqiqotlarni qo'llanilishi va samaradorligi
10. Ilmiy jamoada ishni tashkil etish
11. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash
12. Ilmiy bilishning nazariy darajasi va uning xususiyatlari
13. Ilmiy bilishda prognoz qilishning o'rni
14. Fanda bashorat ijod shakli sifatida
15. Iqtisodiy tadqiqotlarda ilmiy ijod va bashorat metodologiyasidan foydalanish
16. Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishini ilmiy prognoz va bashorat qilish